



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY ETILISHIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLAR

Nasirova Muxtabar Abduraximovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institute, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida pedagogik va psixologik imkoniyatlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim muhitini tashkil etishni nazarda tutadi. Maqolada pedagoglar uchun zarur bo'lgan innovatsion o'qitish texnologiyalari, differensial va adaptiv ta'lim usullari, individual ta'lim yo'l xaritalari bilan ishlash qoidalari hamda kollaborativ o'qitishning afzalliklari tahlil qilingan. Shu bilan birga psixologik xizmatning vazifalari — diagnostika, korreksiya, ota-onalar bilan ishlash va o'quvchilarni emotsional qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar ham ko'rib chiqilgan. Pedagog va psixolog hamkorligining inklyuziv muhitni samarali tashkil etishdagi roli alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun teng imkoniyat, ijtimoiy adolat va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixologik moslashuv, to'siqsiz muhit, diagnostika, nogironlik, integratsiya, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Насирова Мухтабар Абдурахимовна

Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье освещается роль и значение педагогических и психологических возможностей в процессе внедрения инклюзивного образования в общеобразовательных учреждениях. Инклюзивное образование предполагает организацию образовательной среды с учетом индивидуальных потребностей всех обучающихся. В статье проанализированы инновационные образовательные технологии, дифференцированные и адаптивные методы обучения, правила работы с индивидуальными образовательными маршрутами, а также преимущества коллаборативного обучения, необходимые для педагогов. Наряду с этим рассмотрены основные направления деятельности психологической службы, включая диагностику, коррекцию, работу с родителями и эмоциональную поддержку обучающихся. Особо подчеркнута роль взаимодействия педагога и психолога в эффективной организации инклюзивной образовательной среды. Результаты исследования показывают, что инклюзивное образование является важным фактором обеспечения равных возможностей, социальной справедливости и формирования поддерживающей образовательной среды для всех детей.

Ключевые слова: психологическая адаптация, безбарьерная среда, диагностика, инвалидность, интеграция, педагогическая поддержка.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR IMPLEMENTING INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Nasirova Muxtabar Abduraximovna

A. Avloni National Institute of Pedagogical Mastery, Senior Lecturer

Abstract

This article highlights the role and significance of pedagogical and psychological capacities in the process of implementing inclusive education in general secondary educational institutions. Inclusive education involves organizing the learning environment while taking into account the individual needs of all students. The article analyzes innovative teaching technologies, differentiated and adaptive instructional methods, guidelines for working with individual learning pathways, and the advantages of collaborative learning required for teachers. In addition, the key functions of psychological services—such as diagnostics, correction, cooperation with parents, and emotional support for students—are examined. Special emphasis is placed on the collaboration between teachers and psychologists in the effective organization of an inclusive educational environment. The research findings indicate that inclusive education is a crucial factor in ensuring equal opportunities, social justice, and the formation of a supportive learning environment for all children.

Keywords: psychological adaptation, barrier-free environment, diagnostics, disability, integration, pedagogical support.

Inklyuziv ta'lim — bu inson shaxsining umuminsoniy qadriyatlariga asoslanganligi, uning o'ziga xosligi, ma'naviyati, dini, millati, irqi, aqliy va jismoniy holati qanday bo'lishidan qat'iy nazar yashash va o'qishga bo'lgan huquqi kabi gumanistik g'oyalarning rivojlantirish natijasidir. Barcha bolalarning jismoniy, intellektual, psixologik yoki ijtimoiy farqlaridan qat'iy nazar birgalikda o'qishini ta'minlaydigan ta'lim modeli hisoblanadi. YUNESKO tashkiloti inklyuziya haqida shunday ta'rif beradi: “mulohaza yuritish jarayoni va barcha tinglovchilarning ehtiyojlarining xilma-xilligiga javob berish ta'lim, madaniyat va jamoalarda ishtirok etishni kuchaytirish orqali jamiyatlar va maktabni tark etishni kamaytirish va ulardan istisno qilish”. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish nafaqat tashkiliy yoki infratuzilmaviy o'zgarishlarni, balki pedagogik-psixologik imkoniyatlarni ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Pedagogning inklyuziv muhitda samarali ishlashi uchun maxsus bilim, kompetensiyalar, muloqot madaniyati va psixologik tayyorgarligi zarur.

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga individual yordam va dastur asosida rivojlanish imkonini yaratadi. **Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi** – har bir o'quvchining individual o'quv ehtiyojlariga mos shart-sharoit yaratish, uni o'quv va tarbiya jarayoniga to'laqonli jalb etish, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga teng huquqli kirishini ta'minlash, o'quv jarayonida farqlash, individuallashtirish va qo'llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirish.

Metodologiya (Methods). Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlardan tizimli ravishda foydalanildi. Nazariy bosqichda inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda psixologik moslashuv jarayonlariga oid milliy va xorijiy ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy maqolalar chuqur tahlil qilindi. Ushbu tahlil inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini aniqlash, mavjud yondashuvlarni umumlashtirish hamda tadqiqot muammosini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Empirik bosqichda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va maktab psixologlari ishtirokida so'rovnoma hamda yarim strukturalangan suhbatlar tashkil etildi. So'rovnomalar orqali pedagog va psixologlarning inklyuziv ta'limga munosabati, mavjud muammolar, amaliy tajribalari va hamkorlik darajasi o'rganildi. Suhbatlar jarayonida esa

inklyuziv sinflarda ishlashda uchraydigan pedagogik va psixologik qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda samarali tajribalar aniqlashtirildi.

Shuningdek, pedagogik kuzatuv metodi yordamida inklyuziv sinflardagi o'quv jarayoni, o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional holati, o'qituvchi-o'quvchi hamda o'quvchi-o'quvchi o'zaro munosabatlari tahlil qilindi. Taqqoslash metodi orqali an'anaviy va inklyuziv ta'lim sharoitlaridagi pedagogik yondashuvlar samaradorligi solishtirildi, umumlashtirish metodi asosida esa olingan natijalar yagona xulosaga keltirildi.

Tadqiqot davomida to'plangan empirik ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlandi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalar orqali tizimlashtirildi, sifat tahlili esa pedagog va psixologlarning fikr-mulohazalarini chuqur talqin qilish imkonini berdi. Bundan tashqari, differensial va adaptiv ta'lim usullarining amaliy samaradorligi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, faolligi va psixologik moslashuv darajasi asosida baholandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik imkoniyatlardan samarali va tizimli foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar inklyuziv sinflarda o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirgani kuzatildi.

Differensial va adaptiv ta'lim usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish darajalarini hisobga olish imkoniyati kengaydi. Tadqiqot jarayonida topshiriqlar murakkabligini moslashtirish, o'quv materiallarini turli shaklda taqdim etish hamda individual yondashuvni qo'llash o'quvchilarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli jalb etilishiga xizmat qilgani aniqlandi. Bu holat, ayniqsa, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minladi.

Psixologik xizmat faoliyati doirasida olib borilgan diagnostik tadqiqotlar o'quvchilarning psixologik holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlashga yordam berdi. Olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan moslashtiruvchi va korreksion chora-tadbirlar o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtirdi hamda sinf jamoasiga integratsiyalashuvini yengillashtirdi.

Shuningdek, ota-onalar bilan muntazam hamkorlik qilish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Pedagog va psixologning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida inklyuziv ta'lim muhiti barqaror, qo'llab-quvvatlovchi va psixologik jihatdan xavfsiz tizimga aylangani aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv sinflarda differensial va adaptiv ta'lim usullaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirishi aniqlandi.

Inklyuziv ta'limni joriy etishda pedagogik imkoniyatlar

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish - interaktiv usullar, modulli o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, tarmoqli o'rgatish texnologiyalari inklyuziv muhitda juda samaralidir. Ular o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularning faol ishtirokini rag'batlantiradi.

2. Individual ta'lim yo'l xaritalari (ITYX)ni qo'llash, ayniqsa, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun individual ta'lim dasturlari o'quv jarayonini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Pedagog ITYX asosida har bir o'quvchining qobiliyati, rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv materialini berish imkoniga ega bo'ladi.

3. Differensial va adaptiv ta'limdan foydalanish inklyuziv sinflarda o'quvchilar turli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shu bois topshiriqlar, materiallar va qo'llab-quvvatlash turlari differensiallashtirilishi lozim.

4. Kollaborativ o'qitish va jamoaviy faoliyat Inklyuziv ta'limda "Tengdosh-tengdoshga yordam" tamoyili katta ahamiyatga ega. Bu bolalarning ijtimoiylashuviga yordam beradi, o'zaro hurmat, hamkorlik va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari pedagogik va psixologik imkoniyatlarning uyg'unligi inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama (Discussion). Olingan tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy izlanishlar bilan solishtirilganda, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogik va psixologik imkoniyatlarning uyg'unligiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, pedagogik innovatsiyalarni psixologik yondashuvlar bilan birgalikda qo'llash o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi hamda ta'lim jarayoniga moslashuv darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu holat inklyuziv ta'limni faqat metodik yondashuvlar asosida emas, balki psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'un holda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv maktab o'qituvchilari ta'lim jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar faqat nogironligi bo'lgan o'quvchilarga xos emasligini, balki barcha o'quvchilarda uchrashi mumkinligini chuqur anglab yetishlari muhimdir. Inklyuziv ta'lim tushunchasi faqat alohida ehtiyojli bolalarni emas, balki ta'limda tenglikni ta'minlash, o'quvchilarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishiga sharoit yaratish, shuningdek, maktab muhitining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlash kabi omillarni ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv va xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda mavjud to'siqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yoki kamida samarali yengish mexanizmlarini ishlab chiqish maktab oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning psixologik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, emotsional barqarorlik, bag'rikenglik, muloqotchanlik va stressga chidamlilik kabi sifatlar pedagogning inklyuziv sinfda samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Pedagogning har bir o'quvchining individual xususiyatlarini qabul qilishi va ularni qo'llab-quvvatlashi inklyuziv muhitda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, maktab psixologlarining inklyuziv muhitdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Psixologik xizmatning diagnostika, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazish, ota-onalarga psixologik maslahat berish hamda pedagoglar bilan hamkorlikda ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga qaratilgan faoliyati inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Psixologik qo'llab-quvvatlashsiz faqat pedagogik metodlarga tayanish yetarli samara bermasligi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi.

Inklyuziv sinflarda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda o'quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi va psixologik xavfsizligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunda sinf ichidagi munosabatlar, tengdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy muhit hamda o'qituvchining munosabati asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ijobiy baholash, ochiq muloqot va rag'batlantirish vositalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Umuman olganda, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati pedagog va psixologning uzviy hamkorligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Ularning birgalikdagi faoliyati o'quvchilarning umumiy va maxsus ehtiyojlarini baholash, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'quv muhitini optimallashtirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu multidisiplinar yondashuv inklyuziv ta'limning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish pedagogik va psixologik imkoniyatlarni samarali tashkil etishni talab etadi. Pedagogning innovatsion usullardan xabardorligi, psixologning qo'llab-quvvatlovchi vazifalari, hamkorlik muhitining mavjudligi — inklyuziv ta'limning asosiy omillari hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim jamiyatdagi tenglik,

bag'rikenglik va barcha bolalar uchun imkoniyat yaratish g'oyasini hayotga tatbiq etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. Paris: UNESCO, 2005.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education – All Means All. Paris: UNESCO, 2020.
3. Ainscow, M., Booth, T. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), 2011.
4. Florian, L., Black-Hawkins, K. Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 2011, Vol. 37, No. 5, pp. 813–828.
5. Slee, R. Inclusive Education Isn't Dead, It Just Smells Funny. London: Routledge, 2018.
6. Назарова Н. М. Инклюзивное образование: теория и практика. Москва: Издательство «Академия», 2016.
7. Шевченко С. Г. Психолого-педагогическое сопровождение инклюзивного образования. Москва: Владос, 2017.
8. Махмудов Н., Рахимов Ш. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. Янги тахрир. Тошкент, 2020.
10. Karimova D. Inklyuziv ta'limda pedagog va psixolog hamkorligi masalalari. Pedagogik ta'lim jurnali, 2021, №3